

**IQTISODIY
TAHLIL
NAZARIYASI**

65.053 ya73

I-99

59a

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

B.J.Xakimov, B.B.Alimov, U.A.Xolmirzayev, A.X.Po'latov

IQTISODIY TAHLIL NAZARIYASI

Toshkent Moliya instituti ilmiy-uslubiy Kengashi tomonidan
5140900--Kasb ta'limi (Buxgalteriya hisobi va audit),
5340900--Buxgalteriya hisobi va audit (tarmoqlar bo'yicha)
bakalavr ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalar uchun
o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan

**TOSHKENT
«IQTISOD-MOLIYA»
2012**

UDK 657:338(075)

KBK 65.053

I 99

Taqrizchilar:

A.A. Abdugʻaniyev – i.f.d., professor

Z.A. Sagdillayeva – i.f.n., Toshkent moliya instituti

«Moliyaviy tahlil» kafedrasi dotsenti

Iqtisodiy tahlil nazariyasi / Oʻquv qoʻllanma : B.J. Xakimov [va boshq.]; Oʻzbekiston Respublikasi; Toshkent Moliya instituti. –T.: «IQTISOD-MOLIYA», 2013, –240 bet.

Oʻquv qoʻllanma innovatsion texnologiyalarga asoslangan raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida iqtisodiy tahlil nazariyasi fanining maqsadi, mazmuni, vazifalari, predmeti, metodi, prinsiplari, usullari, iqtisodiy tahlilning turlari va ularni tashkil etish, tahlilning axborot manbalari, korxonada faoliyatining asosiy samaradorlik koʻrsatkichlari va ularni tahlil qilishning uslubiy asoslari, informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlil mavzularini yoritib beradi.

Oʻquv qoʻllanma oliy oʻquv yurtalarining talabalari, oʻqituvchilari, ilmiy xodimlari, magistrantlariga moʻljallangan boʻlib, undan barcha darajadagi moliya sohasi mutaxassislari hamda iqtisodiy tahlil bilan shugʻullanuvchilar foydalanishi mumkin.



UDK 657:338(075)

KBK 65.053ya73

ISBN 978-9943-13-400-3

© «IQTISOD-MOLIYA», 2012

© Mualliflar, 2012

KIRISH

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozini ilmiy tadqiq qilish asosida uning boshlanishiga sabab bo'lgan voqealiklar birma-bir topilib, ularning shakli hamda mazmuni aniqlanib global hodisaga ko'rsatgan ta'sirlari o'rganilmoqda. Ta'kidlash kerakki, iqtisodiy inqiroz bu muammolar kompleksidir. Uning yechimi ham kompleks chora-tadbirlarni muayyan davr davomida uzluksiz qo'llanilishini talab qiladi. Moliyaviy iqtisodiy inqirozning kelib chiqishini shartli ikki yirik guruh: makroiqtisodiy hamda mikroiqtisodiy darajadagi sabablar bilan izohlash mumkin.

Mikroiqtisodiy darajadagi sabablarga ko'plab xo'jalik subyektlari tomonidan hisob tizimining davr talablari asosida tashkil qilinmaganligi hamda mazkur holatlarga auditorlik firmalarining jiddiy munosabat bildirmaganligi kabitlar misol bo'la oladi. Bunday kamchiliklar xo'jalik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish ishlarida ham yaqqol ko'zga tashlandi. Agarda, xo'jalik subyektlari har bir iqtisodiy voqealarni ilmiy asosda chuqur tahlil qilib, boshqaruv qarorlarini o'z vaqtida qabul qilganlarida edi, jahon miqyosida inqiroz tufayli o'z faoliyatini to'xtatgan, bankrot bo'lgan korxonalar soni bu darajada ko'p bo'lmas edi.

Xo'jalik subyektlari faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish – ular faoliyatini har tomonlama ilmiy bilishda, resurslarni samarali boshqarishda, investitsiyalar jalb qilishda, boshqa korxonalar bilan iqtisodiy munosabatlar o'rnatishda hamda turli maqsadlar uchun o'rganishda muhim ahamiyatga ega.

Jahon iqtisodiyotida sodir bo'layotgan salbiy voqealarga qaramasdan Respublikamizda xo'jalik subyektlari faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish borasida va uni rivojlantirishda ko'plab ijobiy ishlar amalga oshirildi hamda bu jarayon davom ettirilmogda.

So'nggi yillarda respublikamizda iqtisodiy islohotlar ko'lamining ham kengayib, ham chuqurlashib borishi, shuningdek, raqobatdosh iqtisodiyotni shakllantirish sharoiti xo'jalik subyektlari faoliyatini yanada obyektiv iqtisodiy tahlil qilish zarurligini ko'rsatib bermoqda. Bu esa, bu boradagi ishlarni davr ehtiyoji asosida takomillashtirish vazifasini yuzaga chiqarmoqda.

Mutaxassislar bilimi hamda malakasini davr talablari asosida takomillashtirib borish ham bu boradagi muhim ahamiyatga ega tadbirlardan biri hisoblanadi.

Axborot-kommunikatsiya texnikalari vositasida informatsion texnolo-

giyalarga asoslangan holda iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil qilish va yuritish masalasi hisob tizimidagi zamonaviy yo'nalishdir.

Iqtisodiy munosabatlarning rivojlanishiga mos keluvchi tahlilning uslubiy asoslarini takomillashtirish esa vazifalarni muvaffaqiyatli bajari-lishining markaziy jihati hisoblanadi.

«Iqtisodiy tahlil nazariyasi» nomli o'quv qo'llanma aynan ko'rsatib o'tilgan masalalarni hal qilish yo'lida bajarilgan ishlardan biri sanaladi.

Ushbu o'quv qo'llanma sakkiz bobdan iborat bo'lib, unda iqtisodiy tahlilning ilmiy asoslari, mazmuni, predmeti, vazifalari, metodi, meto- dikasi, iqtisodiy-matematik usullari turlari, axborot manbalari, iqtisodiy tahlil ishlarini tashkil qilish, kompleks iqtisodiy tahlil hamda ishlab chiqarish-moliyaviy faoliyatning asosiy ko'rsatkichlari tahlilining uslu- biy asoslari, informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqarish tizi- mida iqtisodiy tahlil kabi masalalar bayon qilingan.

Qo'llanmaning o'ziga xos jihati bo'lib bilish nazariyasi va iqti- sodiy tahlil, O'zbekistonda iqtisodiy tahlil fanining rivojlanishi, tahlil prinsiplari, iqtisodiy tahlil metodologiyasi, omilli tahlil metodikasi, tahlil usullari va metodikasi, taqqoslash usuli, ko'p o'lchovli taqqoslash, ko'rsatkichlarni taqqoslanma ko'rinishga keltirish usullari, iqtisodiy tahlilda o'rtacha miqdorlar, grafik usuldan foydalanish, zanjirli bog'- lanish usuli, iqtisodiy matematik usullarning turlari, determinallashgan modellar va xo'jalik faoliyatidagi omillar tizimining tahlili, stoxastik modellar va xo'jalik faoliyatidagi omillar tizimi, nazariy o'yin usuli va tahlilda foydalanishning o'ziga xos tomonlari, iqtisodiy tahlilni turlarga ajratish, moliyaviy tahlil, boshqaruv tahlili, tezkor tahlil, joriy tahlil, istiqbolli tahlil, kompleks tahlil, funksional qiymat tahlili, diagnostik tahlil, iqtisodiy tahlilda axborot turlari va ularning manbalari, korxonada faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishning asosiy qoidalari, korxonada iqtisodiy tahlilning tashkillashtirish shakllari va uning ijrochilari, analitik ishni rejalashtirish, tahlilning informatsiya hamda uslubiy ta'minoti, iqtisodiy tahlilni tashkil etishning bosqichlari, tahlil natijalarini umum- lashtirish va rasmiylashtirish, kompleks iqtisodiy tahlilni tashkil etish, mahsulot ishlab chiqarish va sotishning muhim ko'rsatkichlari tahlili, informatsion texnologiyalarga asoslangan boshqaruv tizimida iqtisodiy tahlilning roli va o'rni, informatsion texnologiyalarga asoslangan bosh- qaruv tizimida iqtisodiy tahlilning tashkil etish tamoyillari va mazmuni kabi masalalar yetarlicha bayon qilinganligi hisoblanadi. Har bir mavzu- ga oid tayanch so'z va iboralar, topshiriqlar hamda test materiallari berilgan.